



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-iyul

175-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 283-sonli hamda Farg'ona viloyat hokimining 2025-yil 23-maydagi 280-11-0-Q/25-sonli qarori to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 13-fevraldagi PF-49-son Farmoniga muvofiq transport, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalaridagi vazirliklar, idoralar hamda xo'jalik birlashmalari rahbarlari hamda ularning o'rinbosarlarining mas'uliyati va shaxsiy javobgarligini oshirish hamda ularning faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi "Transport, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joylar kommunal xo'jaligi sohalaridagi vazirlik va idoralar faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KRI) tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Transport, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joylar kommunal xo'jaligi sohalaridagi vazirlik va idoralar faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to'g'risida"gi 2025-yil 29-aprel kunidagi 283-sonli hamda Farg'ona viloyat hokimining 2025-yil 23-maydagi 280-11-0-Q/25-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ushbu qaroriga muvofiq: Transport, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalaridagi boshqarmalar, idoralar va xo'jalik birlashmalari rahbarlari hamda ularning o'rinbosarlari faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ularga erishish bo'yicha "yo'l xaritalari" hamda hududlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi 1-5-ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi; eng muhim

samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bajarilishi to'g'risidagi ma'lumot har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining "samaradorlik uz" elektron platformasiga (keyingi o'rinlarda - platforma) kiritilishi; Quyidagicha tartib o'rnatilganligi, unga muvofiq: platformadagi va qog'ozda tasdiqlangan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bajarilishi to'g'risidagi ma'lumot noto'g'ri to'ldirilganda, tegishli vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari rahbar xodimlariga intizomiy jazo qo'llanilgan holda tuzatish kiritiladi; eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bajarilishi monitoringi yuritish va ularga erishish natijalarini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasi tegishli tarkibiy bo'linmasining mas'ul hodimiga (kurator) platformadan foydalanish huquqi belgilanganligi; Ushbu qarorga ilovalardagi eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bajarilishini tasdiqlash mas'ul etib belgilangan vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalarining rahbarlari bir hafta muddatda eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari tasdiqlashga mas'ul bo'lgan rahbar o'rinbosari va tegishli hodimlar biriktirilishini va bu to'g'risida tegishli buyruq nusxasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga taqdim etilishini ta'minlash belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari M.Qodirxonov hamda tegishli korxona va tashkilotlarga: Tegishli korxonalar, bo'lim, xo'jalik birlashmalari tomonidan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlariga (KPI) erishish ustidan tizimli va ta'sirchan nazoratni ta'minlasin hamda yuzaga kelgan muammolarni tezkor bartaraf etish bo'yicha qat'iy choralar belgilab borsin; belgilangan ustivor vazifalar va maqsadlar ijrosini ta'minlash uchun boshqarmalar, idoralar va xo'jalik birlashmalari hamda tuman darajasidagi tizim tashkilotlari bo'yicha sohalar va tarmoqlar kesimidagi yaxlit va uzviy ijro intizomini ta'minlasin, bunda qat'iy talab, temir intizom va ijroni o'z vaqtida va sifatli tashkil etmagan rahbarlarga nisbatan tegishli choralar ko'rishni nazarda tutuvchi ijro tizimini yo'lga qo'ysin; hodimlarning mehnat unumdorligini tahlil qilgan holda, har bir hodimning vaqtdan unumli foydalanish tizimini tashkil etish hamda hodimlarni kasbiy rivojlantirish va ularning malakasini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o'rinbosari M.Qodirxonov zimmasiga yuklansin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T